

O'RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA'LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O'TKAZISH UCHUN BUXGALTERIYA HISOBI FANIDAN MALAKA TEST SINOV TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Buxgalteriya hisobi bilan talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo'llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me'yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko'nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me'yoriy asoslar

1.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Buxgalteriya hisobi

1. Buxgalteriya hisobi nazariyasi;
2. Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar bo'yicha hisob yurita oladi;
3. Tovar-moddiy zaxiralar hisobini yuritish qobiliyatiga ega;
4. Mehnat haqi va soliqlar bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshira oladi;
5. Pul mablag'lari va hisob-kitoblar harakatini to'g'ri aks ettira oladi;
6. Moliyaviy natijalarni aniqlash va foydani taqsimlashni biladi;

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1	Buxgalteriya hisobi nazariyasi	Buxgalteriya hisobi fanining predmeti, tamoyillari, asosiy tushunchalari (aktiv, majburiyat, kapital, daromad, xarajat) schyotlarning iqtisodiy mazmuni, debet va kredit yozuvlari, aylanma vedomost tuzish qobiliyati Balans moddalari, ularning o'zaro bog'liqligi, balans turlari va ularning o'zgarish sabablari haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	15 %	6 ta
2	Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar bo'yicha hisob yurita oladi	Asosiy vositalarni kirim qilish, amortizatsiyani hisoblash, chiqimga chiqarish, nomoddiy aktivlar hisobi haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	10 %	4 ta
3	Tovar-moddiy zaxiralar hisobini yuritish qobiliyatiga ega	Materiallar, tayyor mahsulotlar, savdo tovarlari hisobini yuritish, FIFO/LIFO baholash usullari haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	23 %	9 ta
4	Mehnat haqi va soliqlar bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshira oladi	Ish haqi fondi, turlari, ushlab qolishlar, soliq va ijtimoiy ajratmalarni hisoblash bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	10 %	4 ta
5	Pul mablag'lari va hisob-kitoblar harakatini to'g'ri aks ettira oladi	Kassa, bank, hisob-kitob schyotlari, valyuta operatsiyalari, debitor va kreditor qarzlari hisobi haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	20%	8 ta
6	Moliyaviy natijalarni aniqlash va foydani taqsimlashni biladi	Daromad va xarajatlarni tan olish, foyda (zarar)ni aniqlash, taqsimlanmagan foyda hisobi haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	22%	9 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	28 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	50 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	22 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarni topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri) — Toshkent, Adliya vazirligi nashri.

2. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (amaldagi tahriri) — Toshkent, Adliya vazirligi nashri.

3. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan Milliy buxgalteriya hisobi standartlari (BHMS) — to'plam, Toshkent.

4. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (XMHXS / IFRS) — rasmiy tarjima va qo‘llanma, Toshkent, Moliya vazirligi huzuridagi buxgalteriya va audit ilmiy-metodik markazi.
5. Buxgalteriya hisobi (darslik) / Tahrir hay’ati: A. A. Karimov, M. M. Tursunov, Z. X. Abdullayeva. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2023.
6. Moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va tahlil qilish / Darslik. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2022.
7. Buxgalteriya balansini tuzish va tahlil qilish asoslari / O‘quv qo‘llanma. — Toshkent, 2021.
8. Toshmurodov S., Abdug‘afforov A. – Buxgalteriya hisobi va audit asoslari. — Toshkent: “Iqtisodiyot”, 2021.
9. G‘ulomov S. S., Sultonov A. A. – Korxona buxgalteriya hisobi. — Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2020.
10. Ostonov B., Raxmonov M. – Buxgalteriya hisobining avtomatlashtirilgan tizimlari. — Toshkent, 2022.